

ALISHER NAVOIY VA FAXRIDDIN IROQIY

Ergash OCHILOV

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti  
katta ilmiy xodimi,  
filologiya fanlari nomzodi,

DOI <https://doi.org/10.5281/zenodo.14804491>

**Annotatsiya:** Maqolada mashhur tasavvuf olimi va mutasavvif shoir Faxriddin Iroqiyning Alisher Navoiyning ijodiy takomilida tutgan o'рни zabardast o'zbek mutafakkiri va so'z san'atkorining "Majolis un-nafois", "Nasoyim ul-muhabbat" tazkiralari, "Xamsat ul-mutahayyirin" manoqibida buyuk salafi haqida keltirgan ma'lumotlari va uning shaxsi, ijodi va faoliyatiga bergan baholari, "Lama'ot" nomli irfoniy risolasidan olgan saboqlari, "Hayrat ul-abror" dostonidagi "Shayx Iroqiy ishq" hikoyati va "Xazoyin ul-maoniy"dagi uning g'azallariga qilgan tatabbulari, bu o'ziga xos tasavvufiy manzumalar ta'sirida yaratgan baytlari tahlili asosida ko'rsatib beriladi.

**Kalit so'zlar:** tasavvuf, ta'sir, tatabbu, g'azal, muxammas, musaddas, hikoyat, o'ziga xoslik, talqin, mahorat.

**Аннотация:** В статье представлена роль известного ученого-суфизма и поэта-мистика Фахриддина Ираки в творческом становлении Алишера Навои, великого узбекского мыслителя и художника слова, в очерках "Собрание избранных", "Ветеры любви", "Пятерица смятенных" и его великого предшественника, оценки его личности, творчества и деятельности "Лучи". Показано на основе анализа уроков, извлеченных им из мистического трактата "Смятения праведных", рассказа о "Любви Шейхе Ираки" в эпосе "Смятения праведных" и его подражании его газелей в "[Сокровищница мыслей](#)", и стихи, созданные им под влиянием уникальных мистических поэм.

**Ключевые слова:** суфизм, влияние, татаббу (подражание), газель, мухаммас (пятерица), мусаддас (шестишые), притча, своеобразие, интерпретация, мастерство.

**Annotation:** In the article, the role of the famous Sufism scholar and Sufi poet Fakhridin Iraqi in the creative development of Alisher Navoi, the great Uzbek thinker and word artist, is presented in the essays "Majolis un-nafais", "Nasoyim ul-Muhabbat", evaluations of his great predecessor's personality, work and activities in the hagiography of "Khamsat ul-Mutahayin", the lessons he learned from the mystical treatise "Lama'ot", the parable of "Shaykh Iraqi Ishaqi" in the epic "Hayrat ul-Abror" and imitations to his ghazals in "Khazayin ul-Maani", analysis of couplets created under the influence of these unique mystical poems is shown.

**Key words:** mysticism, influence, imitations, ghazal, mukhammas, musaddas, parable, originality, interpretation, skill.

Alisher Navoiyning ijodiy takomilida Faxriddin Iroqiy nomi bilan mashhur tasavvuf olimi va mutasavvif shoir Shayx Faxriddin Ibrohim ibn Buzurgmehr ibn Abdulg'affor Javoliqiy Hamadoniy (1213, Hamadon – 1289, Damashq) alohida o'rin tutadi.

Mo'g'ullar istilosi hammayoqni notinch qilgan g'alag'ovur bir davrda yashab o'tgan Faxriddin bolaligidan tug'ma zehni bilan ajralib turar va butun shahar ahli

# ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O'RGANISH MASALALARI

## xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

uning muxlisi edi. U yoshligidayoq Qur'anni yod olgan va 17 yoshida Hamadon madrasalarida dars bergan.

Ma'lumki, XIII asr tasavvuf ta'limoti keng quloq yozib, nafaqat ilmiy-adabiy, hatto siyosiy-ijtimoiy hayotni ham o'z ta'siriga olgan edi. So'fiytabiat Faxriddin ham Haq oshiqdori halqasiga qo'shilib, tasavvuf olimlari va tariqat pirlari suhbatini olish uchun darveshona turmush tarzini tanlab, egniga faqr to'nini kiyib, yurtma-yurt qalandarlar kabi kezadi. Multonda Shayx Bahouddin Zikriyoga murid tushib, uning qo'lida xirqa kiygan. Shayx unga o'z qizini nikohlab berib, o'rniga xalifa etib tayinlagan. Makka ziyoratiga borib, Bag'dodda Shahobiddin Suhravardiy suhbatiga yetishgan. Keyin Rumga o'tib, Sadridin Ko'niyaviy xizmatiga kiradi va shu yerda "Lama'ot" ("Shu'lalar") nomli mashhur asarini yaratadi. Shahobiddin Suhravardiy (1145–1234), Zakariyo Multoniy (1182–1268), Bobo Kamol Jandiy (XIII asr), Shamsiddin Tabriziy (vafoti – 1247), Jaloliddin Rumiy (1207– 1273), Sadridin Ko'naviy (vafoti – 1275), Sayyid Farg'oniy (XIII asr) kabi tasavvuf olamining mashhur namoyandalari bilan muloqotda bo'lib, ulardan ma'naviy va ma'rifiy fayz oladi. Suhravardiya, kubraviya, mavlaviya va boshqa tariqatlar ta'limotini har tomonlama va keng va chuqur o'rganib, umrining oxirida xonaqohda makon tutib, soliklar tarbiyasi bilan mashg'ul bo'ladi.

Fors va arab tillarini chuqur bilgan Iroqiy bu tillarda otashin nutqlar irod qilib, tinglovchilarni irfoni haqiqatlar bilan tanishtirardi. Ko'niyo hokimi Muiniddin Parvona (vafoti – 1277), elxoniyalar vaziri Shamsuddin Juvayniy (vafoti – 1284), Misr sultoni Sayfuddin Qalovvun (vafoti – 1290) va boshqalar shayx va'zlarining ashaddiy muxlislari bo'lib, unga homiylik qilar edilar.

Faxriddin Iroqiy umrining oxirida avval Misr, keyin Shomga borib, Damashqda yashab qoladi. Multondan o'g'li Kabiriddin kelib, uning xizmatida bo'ladi.

Shayx Iroqiyning qabri Damashqning Solihiya degan yerida Shayx Muhyiddin al-Arabi qabri poyidadir. Uning yonida o'g'li Kabiriddin ham dafn qilingan [3].

"Lama'ot" – Shayx Ahmad G'azzoliyning "As-savoneh fi ma'oni ul-ishq" ("Ishq ma'nolari va voqealari") hamda shayx Muhyiddin ibn Arabiyning "Fusus ul-hikam" ("Hikmatlar gavhari") asari ta'sirida yozilgan bo'lib, 28 lama'ga bo'lingan. Ularning har birida ishq jarayoni va oshiq holatining muayyan ko'rinishi aks etgan bo'lib, ular ishq yo'lida oshiq bosib o'tadigan maqomlar bayonidan iborat. Asarning tili og'ir, uslubi murakkab, ramzlarga boy bo'lgani uchun unga ko'plab sharhlar yozilgan. Ular orasida eng mukammali Abdurahmon Jomiyning 1481 yilda Alisher Navoiy iltimosi bilan yozilgan "Ashi'at ul-Lama'ot" ("Yorqin shu'lalar") sharhi hisoblanadi. Bu haqda Alisher Navoiy "Xamsat ul-mutahayyirin"da "alar "Ashi'at ul-Lama'ot"ki, bu toifa kutub va rasoli arosida ma'lum emaski, hargiz andoq sharh

# ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O'RGANISH MASALALARI

## xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

qalamga kelmish bo'lg'ay, bunyod qildilar" [1,5,773], – deb lutf etadi. “Nasoyim ul-muhabbat”da yozilishicha, bundan maqsad shuki, to muxlislar “mutolaa qilib, maoniysidin fayz olg'aylar va oning nafosatin bu ilmda bilg'aylar” [1,10,478]. Ustozi huzurida undan saboq olgan shoir yana uning shu'lasini porloqligidan xira ko'zlarga ochiqlik, quyoshining nuridan qorong'i ko'ngillarga yorug'lik yetishadi deb ta'riflaydi. Bu bejiz emas. Tasavvufshunoslar uni “Lama'ot”ning eng mukammal va mashhur sharhi deb hisoblaydilar. Bu sharh Alisher Navoiy dunyoqarashiga kuchli ta'sir ko'rsatibgina qolmay, Xuroson va Movarounnahr zaminida shakllangan tasavvufga yangi nafas bag'ishladi va naqshbandiyaning keyingi rivoji, umuman, falsafiy-tasavvufiy tafakkur taraqqiyotida yorqin iz qoldirdi. Alisher Navoiy temuriyzodalardan Abulqosim Boburning ham tasavvufga oid asarlardan Faxriddin Iroqiyning “Lama'ot”i bilan Mahmud Shabustariyning “Gulshani roz”iga muhabbati ayrichaligi haqida “Majolis un-nafois” tazkirasida ma'lumot berib o'tadi. “Bobur Mirzo – darveshvash va foniy sifat va karim ul-axloq kishi erdi. Himmati olida oltunning dag'i kumushning tosh va tufrog'cha hisobi yo'q erdi. Tasavvuf risolalaridin “Lama'ot” bila “Gulshani roz”g'a ko'p mash'uf erdi” [1,9,413].

Iroqiyda so'fiyona oshiqlik va shoirona iste'dod o'zaro uyg'unlashib ketgan. O'tmish olimlari va tazkiranavislarining barchasi uni orif shoir sifatida ta'rif-tavsif etganlar. Jumladan, Davlatshoh Samarqandiy ham uning otashin orifona she'rlar muallifi ekanligini ta'kidlab o'tadi [2,207]. Rizoqulixon Hidoyat esa oshiqning orifiyu oriflarning oshig'i deb lutf etadi. Bu ta'riflarning barchasidan kelib chiqadigan xulosa shuki, Faxriddin Iroqiy hassos orif va otashin shoir edi. Undan 5872 bayt hajmidagi qasida, g'azal va ruboiylardan iborat devoni yetib kelgan. Bundan tashqari, Hakim Sanoiyning “Hadiqat ul-haqiqat” masnaviysi yo'lida 1062 baytli “Ushshoqnoma” (“Oshiqnoma”) manzumasini yaratgan.

G'azalnavislikda Faxriddin Iroqiy Jaloliddin Rumiy kabi Sanoiy G'aznaviy va Farididdin Attorlar izidan borib, asosan irfoniy g'oyalarni nazmiy talqin qilgan va ilohiy ishqni tarannum etgan [3,11–14]. Ayni jihatdan uning san'atkor shoirdan ko'ra, ko'proq Ahmad Yassaviy, Sulaymon Boqirg'oniy, Yunus Emro kabi tariqat targ'ibotchisi bo'lgani ko'zga tashlanadi. U g'azallarini Jaloliddin Rumiy kabi badiha tarzida to'qib ketavergan ko'rinadi, chunki bir qofiya va radifda bir nechtadan g'azal aytgan.

Alisher Navoiy “Mahbub ul-qulub” pandnomasida ishqning darajalarini avom sevgisi, xoslar muhabbati va siddiqlar ishq deb uch guruhga ajratar ekan, Faxriddin Iroqiyning ikkinchi qismiga kiritadi: “Yana so'zi poku, ko'zi pok ishq ahlida mujarrad va munfarid va bebok bu toifaning benaziru adil va toqi faxr ul-millatu vad-din Shayx

# ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O'RGANISH MASALALARI

## xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

Iroqiydurkim, ishq sifotig'a muttasifdur va "Lama'ot"i pok maoniy va tarokibig'a muttasifdur" [1,9,498].

Ma'lumki, Olloh taolo o'zining beqiyos husnu jamolini insonlarda namoyon etadi. Ayni jihatdan go'zal insonlar Olloh jamolining mazhari hisoblanadilar. Oshiqqlar mazharda ilohiy ishq tajalliysini ko'radilar. Oradan parda ko'tarilganda ma'lum bo'ladiki, ular mazhar vositasida aslida haqiqiy yorni sevganlar. "Hayrat ul-abror" dostonining ishqning maqsad-mohiyati, mazmun-mundariyasi har tomonlama keng va chuqur yoritilgan ishq ta'rifidagi 9-maqolatiga ilova sifatida keltirilgan "fano ko'yida boqiy" bo'lgan Shayx Iroqiyning majoziy ishq haqiqiy ishqqa badal bo'lgani haqidagi hikoyatdagi Shom hokimining husnu jamolda tengsiz o'g'li Shayx uchun xuddi shunday ilohiy husnni o'zida aks ettirgan mazhar edi. Uni sevish orqali shayx haqiqiy ishqni topdi.

*Ishqda pok o'lsa kishi bu sifat,  
Xosiyat o'lur bu sifat oqibat.  
Husni haqiqiyini gar o'truda ko'r,  
Xoh ani ko'zgudau gar suda ko'r.*

Shu tariqa shahzodaga bo'lgan majoziy ishq tufayli Shayx haqiqiy ishq maqomiga ko'tarilib, pokdomon pirga aylandi. Oshiqning ko'ngli. Ko'zi, tili pok bo'lishi va yordan tama qilmasligi kerak. Hikoyat orqali Alisher Navoiy o'zining pok ishq haqidagi qarashlarini ilgari suradi [1,6,173–175].

Alisher Navoiy Faxriddin Iroqiyning badiiy ijodini ham muhabbat va ixlos bilan mutolaa qilib, irfoniylar ruhdagi she'rlaridan ta'sirlangan va ilhomlangan. Ikki shoir she'rlarida ham ba'zi o'xshash jihatlar ko'zga tashlanadi. Jumladan, "koshki" – Navoiyning sevgan radiflaridan biri. Shoirning "G'aroyib us-sig'ar" devonida ikki, "Navodir ush-shabob" devonida bir "koshki" radifli g'azal mavjud. Bu uch g'azal orasida "Ochmag'ay erding jamolye olamoro koshki" misrasi bilan boshlanadigan g'azali shuhrat tutgan. Bu g'azalga ustoz Abdurahmon Jomiy ham forsiyda tatabbu qilgan. Navoiy keyinchalik o'z g'azaliga muxammas, Jomiy g'azaliga esa musaddas bog'lagan [1,5,773]. Ayni radifli g'azal esa dastlab Faxriddin Iroqiy devonida uchraydi:

*Dilraboye dil zi man nogah rabudi, koshki,  
Oshnoye qissai dardam shunudi, koshki* [1,5,773].

"Koshki dilrabo, ya'ni dilni oluvchi daf'atan mening dilimni olsa, do'st, ya'ni mahbuba dardim qissasini koshki eshitsa edi".

Navoiy ayni vazn (ramali musammani maqsur) va radifda unga tatabbu qiladi, lekin qofiya tizimi, ifoda yo'sini, tasvir uslubi, mavzu talqini o'ziga xos va ohorli.

*Ochmag'ay erding jamolye olamoro koshki,*

# ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O'RGANISH MASALALARI

## xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

*Solmag'ay erding bori olamda g'avg'o koshki [1,2,631].*

“Koshki olamning ziynati bo'lgan jamolingni ko'rsatmasangu bu bilan jumla jahonga g'avg'o solmasang edi!”

Iroqiy g'azali 7, Navoiy tabbusi 9 baytdan iborat.

G'azal III shaxs, tatabbu I shaxs tilidan berilgan.

Har ikkala g'azal ham irfoniy mazmunda bo'lib, Iroqiyda oshiq va ma'shuq munosabatlari xususida so'z borsa, Navoiy Olloh va olam miqyosida qamrovni keng oladi: Ruhi mutlaq jamolini namoyon qilganida uni ko'rib butun olam ahli haqiqiy mahbubaning oshig'i shaydosiga aylanadi.

Butun olam Yaratuvchisining vasliga mushtoqligi haqidagi fikr Iroqiy g'azalining to'rtinchi baytida keladi:

*Dar pai Simurg'i vaslash olame sargashtaand,*

*Budi o'ro dar hama olam vujude, koshki.*

“Yorning vasli Simurg'i ko'yida butun olam ovora – jumla jahon uning borlig'i bilan to'lsa koshki edi”.

G'azal oshiqning o'ziga iltifot qilishi, vasliga yetkazishi, dardiga darmon bo'lishi haqidagi istak-iltijolari asosiga qurilgan bo'lsa, tatabbu buning ziddi – inkor tasviriga yo'naltirilgan: koshki u jamolini ko'rsatmasa-yu, hammani o'ziga giriftor aylamasa, boshiga ming bir savdo solmasa va hokazo, chunki bu ishqning kelajagi yo'q, bo'lsa ham mavhum – oshiq umid va shubha orasida yashaydi. Jumladan, o'zaro mushtaraklikka ega quyidagi baytlarda iltijo va inkorning yorqin namunasini ko'ramiz:

*Xubruxsore niqob az peshi rux bardoshti,*

*Jazbai husnash maro az man rabudi, koshki.*

*Bo'lmag'ay erdi ko'zum o'tlug' yuzung ko'rgan zamon*

*Ishqing o'ti shu'lasini ko'nglumda paydo koshki.*

Iroqiy “Go'zal malak yuzidan pardasini ko'tarsa-yu, husni jozibasi meni aqlu hushimdan judo qilsa koshki”, – deya dilining tubidagi istaklarini izhor qilsa, Navoiy “O'tli yuzingni ko'rgan nafas ishqing shu'lasini ko'nglimda paydo bo'lmasa koshki edi”, – deb o'z oshiqligidan pushaymonlik hislarini bayon etadi.

O'z g'azaliga bog'lagan taxmisida shoir ayni fikrlarini yanada rivojlantiradi va to'ldiradi:

*Ochg'och ul yuz shu'lasini mahzun ko'ngul topmay omon,*

*Bor edi ul shu'lani ko'rmak hamon, kuymak hamon,*

*Sahv edi sendin vafo qilmoq tamanno men hamon,*

*Bo'lmag'ay erdi ko'zum o'tlug' yuzung ko'rgan zamon,*

*Ishqing o'ti shu'lasini ko'nglumda paydo koshki [1,2,662].*

# ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O'RGANISH MASALALARI

## xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

Tatabbuda ma'shuqning bevafoqligi, visolning imkoni yo'qligidan oshiqning rasvoi olam bo'lganiga urg'u beriladi.

*Bevafoqlig' anglag'ach, ishqingni ko'nqlum tark etib,  
Qilmag'ay erdi o'zin olamda rasvo koshki.  
Emdikim devonayu rasvoi olam bo'lmisham,  
Vasl uchun mumkin yo'q – o'lturgay bu savdo koshki.*

G'azalda esa ma'shuqning dardi oshiqning diliga darmonu joniga malhamligi – shunday ekan, dard ustiga yana dard qo'shishidan umidvorlik qilinadi:

*Chun dilamro dardi o' darmonu jonro marham ast,  
Bar sari dardam digar darde fuzudi, koshki.*

Bu baytda ifodalangan fikr Alisher Navoiyning "Layli va Majnun" dostonidagi quyidagi lavhani xotirada jonlantiradi:

Majnunning otasi pand-nasihatlar kor qilmagan, tabiblar dardiga ojiz qolgan o'g'li uchun so'nggi chorani qo'llaydi – uni Ka'ba tavofiga olib boradi. Lekin Majnun Ollohdan dardiga darmon so'rash o'rniga bu ishq dardini yanada sarbaland qilishini tilaydi:

*Demonki, meni tarabg'a xos et,  
Yoxud g'ami ishqdin xalos et!  
Dermenki, manga bu o'tni har dam  
Afzun qil-u, qilma zarraye kam!.. [1,7,127]*

Iroqiy boshqa bir g'azalida ham agar yor firog'i meni ranju azob ko'rasida bundan ham ko'proq kuydirsa, bundan ham ziyoda baxtu davlat bormi deb lutf etadi:

*Firoqi yor be rahmat maro dar bo'tai mehnat  
Agar z-in besh bigdozad, zihi davlat, zihi davlat! [5,63]*

Navoiyning Iroqiy g'azalidagi kabi istak-iltijo ruhidagi tatabbusini esa "G'aroyib us-sig'ar" devonidan o'rin olgan "bo'lg'ay koshki" radifli birinchi g'azalda ko'ramiz:

*Sihatim ozurda jononimda bo'lg'ay koshki,  
Dardi oning tinmag'ur jonimda bo'lg'ay koshki [1,1,605].*

Bunda lirik qahramon istagi radif bilan birga takrorlanib, g'azalning ta'sirchanligini oshiradi.

Bu g'azal ham ramali musammani maqsur vaznida bitilgan bo'lib, Iroqiydagi kabi 7 baytdan iborat. Lekin qofiya tartibi yangi bo'lgani kabi, radifga istak-xohishni bildiruvchi "bo'lg'ay" so'zi qo'shilib, so'z birikmasiga aylantirilgan: "bo'lg'ay koshki".

Navoiyning "koshki" radifli keyingi g'azali ham ramali musammani maqsur vaznida bo'lib, 8 baytdan iborat. Bu g'azal shoirning o'z og'ir ahvolidan shikoyati

# ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O'RGANISH MASALALARI

## xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

asosiga qurilgan bo'lib, bundan qutulish orzusi, agar bu niyati muyassar bo'lmasa, barchasiga qo'l siltab, uzlatga chekinish istagi aks etgan:

*Bo'lg'ay erdi yuz tuman ming ranju mehnat koshki,*

*Bo'lmag'ay erdi balovu dardi furqat koshki* [1,1,610].

Navoiyning “Maqsad uzoq, vodiya uzun, tun qorong'i, yo'l balchiq. Shuning uchun o'zlik yukidan qutulib, o'zingning yukingni yengil qil”, – mazmunidagi bayti ham Iroqiyning “Yo'l nozigu tun zulmatu ulov qari va cho'loq – ey saodat, o'zing yuz ko'rsatu ey inoyat, o'zing qo'limdan tut” mazmunidagi baytiga hamohang jaranglaydi:

*Roh borik astu shab toriku markab langu pir,*

*Ey saodat, rux namoyu, ey inoyat, dast gir* [5,388].

*Erur maqsad yiroq, vodiya uzun, tun tiyra, yo'l bo'rtoq,*

*Bu yo'lda salb etib o'zlik yukin, o'zni sabukbor et* [1,1,99].

O'zlik – insonning nafs va dunyo bilan bog'liqligi. Ular har lahza kishiga o'zligini eslatib, uni Xudo yo'lidan chalg'itadi. O'zlikni mahv etib, foniy bo'lish Navoiy g'azaliyotining o'q ildizini tashkil etadi. Ko'ngil to dunyoviy muhabbatdan mosuvo bo'lmay turib, unga ilohiy ishq tashrif buyurmasligi uchun ham shoir: “O'zlugumdin o'zga ul yuzga hijobe topmadim” [1,3,437], – deydi bir g'azalida. Iroqiy ham bir baytida o'zinning mavjudligim o'zinga hijob deydi: “...hijobi man ast hastii man” [5,58].

Umuman, Navoiy o'zining bu buyuk salafi g'azallariga tatabbu qilibgina qolmay, Iroqiy ta'sirida qator baytu misralar ham ijod qilgan.

Ma'lum bo'ladiki, Faxriddin Iroqiy Alisher Navoiyning ijodiy takomilida muhim rol o'ynagan adib-u olimlardan biri hisoblanadi. U Abdurahmon Jomiy huzurida uning “Lama'ot” asaridan saboq olgan. Aynan shogirdning taklif va tavsiyasi bilan ustoz bu nihoyatda murakkab bo'lgan irfoniy asarga sharh bitgan. Yana buyuk salafining she'riyatidan ilhomlanib, uning g'azallariga tatabbular qilgan, ulardan ilhomlanib, g'azallar yozgan, baytu misralar ijod qilgan. Birobarin, Faxriddin Iroqiy asarlarining Alisher Navoiy ijodiga ta'sirini har tomonlama keng va chuqur o'rganish navoiyshunosligimizning kun tartibida turgan muhim masalalaridan biri hisoblanadi.

### Adabiyotlar ro'yxati

#### (Использованная литература / References):

1. Алишер Навоий. Тўла асарлар тўплами, X жилдлик. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги НМИУ, 2011.
2. Давлатшоҳи Самарқандий. Тазкирату-ш-шуаро (Таҳияи М.Нуруллоева). – Хўжанд: “Ношир”, 2015.
3. Максудов Б. Жустужў дар аҳвол ва осори Ироқий. – Душанбе: “Пайванд”, 2009.

# ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O'RGANISH MASALALARI

## xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

4. Мақсудов Б. Муқаддима \\\ Фахруддини Ироқий. Девон (Мураттиб ва муаллифи муқаддимаю тавзеҳот: (Б.Мақсудов). – Душанбе: “Донишварон”, 2018.
5. Фахриддини Ироқий. Девон (Мураттиб ва муаллифи муқаддимаю тавзеҳот: Б.Мақсудов). – Душанбе: “Донишварон”, 2018.